

MUSIQA TERAPIYASINING TA'LIM VA TARBIYA BERISH JARAYONLARIDA TUTGAN O'RNI

Akbarova Dildora Rustamovna

*Namangan davlat pedagogika instituti "O'zbek va xorijiy tillar "
kafedrasi 1- kurs doktoranti*

Elektron pochta manzil : dildoraakbarova@namspi.uz

Tel +998975808611 ORCID: 009 005 6221 3874

Annotatsiya : *Ushbu maqolada o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish jarayonida musiqa terapiyasidan foydalanishning afzallik jihatlari hamda musiqa va uning elementlarining o'quvchilar ongiga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqilgan. Maqola muallifi shu masalalarni yoritishda ko'plab olimlarning izlanishlariga hamda o'z ilmiy qidiruvlariga tayanib yozishga harakat qilgan.*

Kalit so'zlar: *Musiqa terapiyasi, ta'lim , tarbiya, maxsus ta'lim, xotira, diqqat.*

THE ROLE OF MUSIC THERAPY IN THE PROCESS OF EDUCATION SYSTEM

Akbarova Dildora Rustamovna

Namangan State Pedagogical Institute (English language)

1st year researcher of "Uzbek and Foreign languages" department

dildoraakbarova@namspi.uz

Tel +998975808611 ORCID: 009 005 6221 3874

Annotation: *This article examines the advantages of using music therapy in the educational process of students, as well as how music and its elements affect students' consciousness. In covering these issues, the author of the article tried to write based on both the research of many scientists and his own scientific research.*

Keywords: *Music therapy , education, general education, special education, memory, attention.*

РОЛЬ МУЗЫКАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ В ПРОЦЕССЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Акбарова Дилдора Рустамовна

*1 курс докторант Наманганский государственный педагогический
институт кафедра "Узбекского и иностранных языков".*

dildoraakbarova@namspi.uz

Tel +998975808611 ORCID: 009 005 6221 3874

Аннотация: В этой статье рассматриваются преимущества использования музыкальной терапии в образовательном процессе учащихся, а также то, как музыка и ее элементы влияют на сознание учащихся. В освещении этих вопросов автор статьи старался писать, опираясь как на исследования многих ученых, так и на собственные научные изыскания. В этой статье обсуждаются преимущества использования музыкальной терапии и то, как студенты влияют на аспекты музыки в области материнства в процессе образования. Автор статьи попытался привести исследование многих ученых и его исследовательских проектов в области освещения этих вопросов.

Ключевые слова: музыкальная терапия, образование, общее образование, специальное образование, память, внимание.

KIRISH

Musiqa asrlar osha insoniyat bilan hamnafas kelayotgan ilohiy san'at turi hisoblanadi. Biz kundalik hayotimizni kuy va ohanglarsiz tasavvur etishimiz mumkin emas. Kishilar o'zlarini hursand paytlarida ham, xafa bo'lgan kezlarida ham musiqa tinglaydilar va unga hamohang hirgoyi qiladilar. Bunga sabab kuy-u ohanglar insoniyat bilan ibtidoiy jamoa tuzumidan beri birgaligadadir. Musiqa nafaqat ko'ngillarga hush kayfiyat beruvchi balkim terapevtik, ya'ni davolovchi hamda tetiklantiruvchi xususiyatlarga ega keng ko'lamli vosita hisoblanadi. Musiqa terapiyasi atamasiga Jahon Musiqa Terapiyasi Federatsiyasi tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan. "Musiqa terapiyasi- musiqa va uning elementlaridan tibbiy, ta'limiy va kundalik hayotda yakka tartibda, guruh bilan, oila yoki jamoa bilan o'zlarining jismoniy, ijtimoiy, hissiy, aqliy va ruhiy salomatliklarini yaxshilash da foydalanishdir". Musiqa terapiyasini tadqiq qilish, amaliyot, ta'lim va klinik trening madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstlarga muvofiq professional standartlarga asoslanadi. Xozirgi kunlarda musiqa terapiyasi Amerika Qo'shma Shtatlari, Svetsiya, Italiya, Rossiya va bir qator rivojlangan davlatlarning ta'lim muassasalarida qo'shimcha ta'lim berish vositasi sifatida ishlatilib kelinyapti hamda bu sohada yuksak natijalarga erishilyapti. Afsuski, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida musiqa terapiyasi dars jarayonlariga tadbiiq etilmagan. Chunki musiqa terapiyasiga oid o'zbek tilidagi ilmiy manbalar juda ham kam.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musiqqa bilan davolash aslida barcha qadimgi sivilizatsiyalarga ma'lum bo'lgan davolash turlaridan biri hisoblanar edi. U Misr, Ossuriya, Bobil, Isroil, Rim va Gretsiyada yuqori baholangan. Misrda miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda tabiblar Nil daryosida suzib ketayotgan kasallarni qayiq'larga mindirar edilar. Bu sayohat davomida ularga oddiy cholg'u asboblardan chalinayotgan tinchlantiruvchi musiqalar hamroh bo'lardi. Yunonlar musiqani ruhiy gigienik vosita sifatida turli kasalliklarni oldini olish sifatida qabul qilishgan. Qadimgi yunon faylasuflari Pifagor, Platon hamda Aristotel musiqqa terapiyasi bilan ham shug'ullanishgan. Sharq olimlari musiqaning insonga sirli ta'sir qilib, qalbida yangi tuyg'ularni hosil qilishini e'tirof etganlar. Sharq mutafakkirlari insonni tarbiyalash jarayonida musiqaning o'rinini alohida ta'kidlaganlar. Ularning fikricha musiqqa qalb va aqlni tarbiyalash xususiyatiga egadir. Sharq klassik musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ayniqsa Farobiyning ijodida ushbu mavzu alohida o'rin tutgan. U bolalarni tarbiyalash jarayonini musiqqa bilan hamrohlikda olib borish kerakligini aytadi. Farobiyning fikricha, musiqqa bolalarda ijobiy ruhiy hislarni chaqiradi, qalbi poklanishiga sabab bo'ladi va bu holatni u "katarsis" deb nomlaydi. Shu bilan birga Farobiy musiqqa bolalar ruhiyatini davolash xususiyatiga ega bo'lgan ajoyib bir vosita ekanini aytib o'tgan. Ibn Sino Farobiyning ishlarini davom ettirgan holda insonning qalb holati u tinglayotgan yoki ijro etayotgan musiqqa bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Kuy ohanglari tartibsiz bo'lsa insonni tushkunlikka tushirishi, yoki yuksakliklarga olib chiqishi mumkin. Kuydash esa salomatlikni tiklash uchun eng foydali mashg'ulot ekanini Ibn Sino alohida ta'kidlagan va uning mashhur "Tib qonunlari" kitobida yozilishicha, "Bolani mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri, bolani asta – sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqqa va allalashdir". Shuningdek, musiqqa insonning sog'lom yashashi, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi uchun ham nihoyatda foydalidir. Musiqqa terapiyasi o'tmishdan tibbiyotda keng qo'llanilgan bo'lsa ham u alohida o'qitish usuli sifatida ta'lim jarayonlarida foydalanilmagan. 1950 yilga kelib Amerika Qo'shma

Shatlatlarida Amerika Musiqa Terapiyasi Uyushmasi tashkil etildi . Musiqa terapiyasining ijobiy sifatlari tadqiqotlarga ko'ra nogironligi bor o'quvchilarda qayd etila boshlandi va yillar o'tib u nafaqat tibbiyotda balki ta'lim sohasida ham qo'llana boshlandi . Birinchi bo'lib Amerika Qo'shma Shtatlarida 1997 yil maxsus nogironligi bor o'quvchilarni o'qitishda musiqa terapiyasi yordamchi usul siftida qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'plab tadqiqotlar bolalarda musiqa va tilni rivojlantirish o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni ta'kidlaydi. Musiqa ko'p tomonli tajribada bolalarni jalb qilishi bilan ahamiyatli. Uning ta'sir kuchi turli xil kognitiv jarayonlarni, shu jumladan e'tibor, xotira va ko'nikmalarni rivojlantirishda ko'rinadi. Ushbu kognitiv jarayonlar tilni o'zlashtirish va savodxonlik ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalar musiqa tinglash jarayonida ritmik harakatlar, melodik konturalar va lingvistik strukturalarning qofiya va takrorlash kabi elementlariga duch kelishadi. Musiqa terapiyasining xorijiy tillarni o'rgatishdagi o'rnini ko'radigan bo'lsak, soha mutahasislari o'quvchilarga yordam bera oladigan zamonaviy usullarni izlashda davom etishmoqda. Shunday metodlar orasida musiqa terapiyasi tobora ommalashib borayotgan va samarali vositalardan biridir. Chet tilini musiqaning terapevtik xususiyatlari bilan omuxta qilib o'qitish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning chet tilini erkin muhitda o'zlashtirishlari uchun imkon yaratishyapti. An'anaviy ingliz tili darslarida o'quvchilar o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalariga e'tibor qaratgan bo'lsalar, musiqa terapiyasining elementlarini darslarga qo'shish talabalarga tilni qo'shiq, ritm va ijodiy ovozli faoliyat orqali chuqur o'rganishga imkon beradi. Musiqa terapiyasi o'quvchilarning xotiralarini yaxshilaydi, hissiy jarayonlariga ta'sir qiladi hamda til o'rganishda bir-birlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatishga yordam beradi. Quyida musiqa terapiyasining til o'rganishda ta'limiy hamda psixologik yordami haqida to'xtalib o'tilgan.

1. Erkinlikni ta'minlaydi

Yangi tilni o'rganish ayniqsa o'ziga nisbatan ishonch bilan muammosi bor bo'lgan yosh o'quvchilar uchun juda qiyin jarayon. Musiqiy terapiya til to'siqlarini buzish va o'rganishni yanada qulay qilish uchun jalb qiluvchi va havfsiz usul hisoblanadi. Qo'shiq kuylash orqali o'quvchilar o'zlarini ingliz tilidagi so'zlarga

yanada yaqinroq bo'lgandek his qiladilar . Shunchaki qo'shiq bilan hamohang kuylab, o'quvchilar til qurilmalarini tezroq hamda bu jarayonlardan havotirlanmagan holda o'rgana oladilar.

2. Hissiyotlarni qo'lga olishga yordam beradi

Ingliz tilini chet til sifatida o'rganish ko'pincha juda ko'p qiyinchiliklar va xatolarni o'z ichiga oladi, bu, ayniqsa yosh o'rganuvchilarni asabiylashishga majbur etadi. Musiqiy terapiya talabalarga o'z his-tuyg'ularini boshqarishda yordam beradi. Tinchlantiruvchi lullaby yoki jonli pop qo'shig'i orqali musiqa hissiyotlarni tartibga soladi va tushkunlikni kamaytiradi. Bu talabalarni xato qilishdan qo'rqmasdan til o'rganishga undaydi, va ularda o'ziga nisbatan ishonchni kuchaytiradi.

3. Tinglash va tushunish qobiliyatini takomillashtiradi

Musiqiy terapiya shuningdek, yangi tilni o'rganish paytida hal qiluvchi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Qo'shimcha so'zlar, ritm va musiqaga e'tibor qaratib, o'quvchilar tovushlarni ajratib, turli xil urg'u va nutq shakllarini tushunish qobiliyatlarini kuchaytiradi. Ritm, intonatsiya va kuy o'quvchilarga chet tilidagi so'zlarning talaffuzini egallashga ko'maklashadi, chunki musiqa turli xil usullarda fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda samaralidir.

4. Ijtimoiy hamkorlikni rag'batlantiradi

Musiqaga asoslangan turli xil til o'yinlari , guruh bo'lib aytiladigan qo'shiqlar o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik va aloqalarni rag'batlantiradi. Ushbu guruh faoliyati nafaqat til ko'nikmalarini kuchaytiradi, balki talabalarga navbatni qabul qilish va faol tinglash kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa terapiyasi erkinlik hissini , o'zligini anglashni , o'ziga ishonchni kuchaytiradi, jamoaviy ishlashga rag'batlantiradi, kommunikativ ko'nikmalarni kengaytiradi, shuningdek umidsizlik yoki qiyinchilikni kamaytiradi.

5. Diqqat va xotirani yaxshilaydi

Musiqa terapiyasi yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni o'rganish hamda xotirada saqlab qolishda juda foydali. Qo'shiqlarning ohanglari , qaytaruvchanlik xususiyatlari tinglovchilarga grammatik qurilmalarni osonroq eslashga yordam beradigan eshitish vositasi sifatida ishlatiladi. Darhaqiqat, tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, talabalar musiqa orqali o'rganilganlari an'anaviy usullar bilan taqqoslaganda so'zlarni yoki tushunchalarni yaxshigina eslab qolganlar. Musiqa va ritm yosh bolalar tilni o'rganish jarayonlarining bir qismidir, chunki "ular" shunchaki gapiradigan so'zlar "dan ko'ra tilga taqlid qilib va tilni eslashni juda osonlashtiradi"

6. Ijodkorlikni oshiradi

Shuni unutmaslik kerakki, musiqa ijodkorlikning rivojlanishiga juda kata turtki bo'ladi. Agarda o'quvchilarning musiqiy bilimlari yaxshi bo'lmasa, ular o'zlari musiqiy asarlar yozsalar ham bo'ladi. O'quvchilarni o'zlari yodlagan materiallaridan foydalanib qo'shiqlar yozishga rag'batlantirish ularda xotirani yaxshi ishlashiga olib keladi. Musiqa ko'pincha o'qituvchilar tomonidan sinfda ma'lum bir kayfiyatni o'rnatish uchun ishlatiladi. Ma'lumki, kayfiyat o'quv materiallarini o'zlashtirishni kuchaytiradi. Jarayonda ishtirok etish bilimlarni qayta ishlash va ushlab turishda muhim rol o'ynaydi.

7. Zavq shavq beradi

Sinf xonasida musiqani qo'llashda eng ko'zga ko'rinadigan ustunligi bu uning zavq va shavq berishi hisoblanadi. Bolalar qo'shiq kuylashni sevishadi hamda sinf xonasida ko'pincha ular qo'shiqlarga javob qaytara oladilar, lekin musiqaning shunchaki ko'ngil yozishdan ko'ra ko'proq foydali tomonlari bor. Birinchidan, qo'shiqlar darslarga diqqat va qiziqishni ta'minlovchi xilma-xillik olib keladi bu esa o'z navbatida ilm olish yo'lida yuksak marralarni zabt etishga turtki bo'ladi.

Ikkinchidan, birgalikda xor bo'lib kuylash sinf xonasida samimiy va qulay muhitni yaratadi. Qo'shiqlar xavotirni kamaytirib, o'rganilayotgan tilga nisbatan o'quvchilarning qiziqishni oshiradi va ularga motivatsiya beradi. Chunki o'quvchilar o'qishdan ko'ra musiqani ko'proq huzurbaxsh deb o'ylashadi va ular musiqa yordamida belgilangan tilni o'rganishda zavq topa oladilar.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa terapiyasi nafaqat tibbiy, fiziologik, psixologik balki pedagogik ahamiyatga molik yordamchi vosita hisoblanadi. Uning yordamida o'qituvchilar o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda samarali natijalarga erishishlari mumkin. Xozirgi kunlarda ko'plab rivojlangan

davlatlar musiqa terapiyasidan ta'lim jarayonlarida keng foydalanib kelishyapti , chunki xozirgi tezkor rivojlanib borayotgan zamonda biz qabul qilishimiz mumkin bo'lgan ma'lumotlar talaygina . Ularni eslab yodda saqlash juda mushkul va bu inson miya faoliyatiga ta'sir etib turli xil bosim va stresslarga sabab bo'ladi. Stresslar o'z navbatida miya faoliyatini odatiy ishlashiga to'sqinlik qiladi. Mana shunday jarayonlarda musiqaning sokin va tinchlantiruvchi ko'magi orqali bolalar bilim va ko'nikmalarni osonroq egallaydilar . O'zbekiston Respublikasida musiqa terapiyasining ta'lim tizimidagi o'rni xali to'liq o'rganilmagan hamda bu sohada bajariladigan ishlar talaygina. Bo'lajak tadqiqotchilar chet el olimlari izlanishlarini o'rganib tahlil qilishlari hamda maktab tizimiga uni joriy etishlari maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari o'tmishdagi buyuk olimlarimizning qoldirib ketgan qo'lyozma va kitoblarini o'zbek tiliga o'girib yosh avlodga yetkazish bizning oldimizdagi ulkan vazifadir.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Forgeard, M., Schlaug, G., Norton, A., et al. (2008). The relation between music and phonological processing in normal-reading children and children with dyslexia. *Music Percep.*, 25, 383–390.
2. Ibn Sino, "Tib qonunlari", 1-kitob, 1969 , 176 bet.
3. Jaggard, Victoria. "Making Music Boosts Brain's Language Skills". *National Geographic*, 22 February, 2010.
4. Ludke.K.M ,Teaching foreign language through songs, University of Edinburgh, 2009
5. Millington, Neil T. "Using Songs Effectively to Teach English to Young Learners." *Language Education in Asia*, vol. 2, no. 1, 2011, pp. 134–141., doi:10.5746/leia/11/v2/i1/a11/millington.
6. Moya, A., Albentosa, J. I., Harris, C., Llorente, P. & Torres, G. I. (2003). p 75 ,La enseñanza de la lengua extranjera en la educación infantil.Ediciones de la Universidad de Castilla-La Mancha.
7. Peterson, Elizabeth. "Music and Learning: Why Teachers Should Consider Music in the Classroom." *The Inspired Classroom*, 7 Oct. 2020, theinspiredclassroom.com/2015/09/musicand-learning/.
8. Šimanovský Zdeněk. Hry s Hudbou a Techniky Muzikoterapie Ve výchově, sociální práci a klinické Praxi. Portál, 2011.
- 9.Taverne Jan-Batist. Nouvelle Relation de l'Intérieur du Sérail du Grand Seigneur. – Parij, 1675.